



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Shaishlamova Nargiza Kabilovna	Tijorat banklari risklarini baholashda stress-test usulidan samarali foydalaniish	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No'rbo'ta o'g'li	Kredit riski	60
9.	Kurbonov Said Akbarovich	AQSH federal rezerv tizimi (FRT) va uning iqtisodiyotga ta'siri	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Yusupov Bexzod Yusup ugli	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Tashbaeva Rano Gaiybulloevna, Tashbaev Ulug'bek Vansitovich	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Barakaev Otabek Otaqulovich	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Chorieva Nigina Qaxramanovna	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Kuzieva Dinora Bahodirovna	Uzoq muddatli aktivlarni baholash tartibini takomillashtirish	173
24.	Umarova Gulzodaxon Kodirbekovna	Kichik biznesni muqobil mo'ljalashtirishning ilgor xoriжий tajribalari	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206





29	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida mevachilik tarmog'ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo'llari	335
47	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun'iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50	Toshev Nurbek Janon o'g'li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371
53	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411





59	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тугган ўрни	459
64	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraudfunding platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74	Umarov Abdurahob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550
75	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Xorijiy davlatlar qarzini boshqarishga doir tajribalari va milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	557
76	Bozorov Xayrulla Xaitboyevich	Farg'ona viloyatida biznesni rivojlantirishda jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati	565
77	Умаров Баходир Султанович	Совершенствование налогового администрирования крупных предприятий реального сектора экономики	570
78	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini dalillarga asoslangan holda joriy etish va monitoring qilish modeli	579
79	Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	589
80	Хамдамов Сардор Фармон угли	Sanoat kompaniyalarining davlat xaridlarida narx shakllanishi va raqobat muhiti: lot darajasidagi ma'lumotlar tahlili	595
81	Nabixo'jayeva Dilafro'z Sobir qizi	O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida ayollar intellektual mehnatini boshqarish tizimini takomillashtirish	600
82	Zokirov Sardor To'liqin o'g'li	Raqamli platformalar orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish	607
83	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitning roli	612
84	Axmedova Nigora Djabbaraliyevna	Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatining nazariy asoslari	618
85	Davronov Doniyor Elmuratovich	Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalarini qo'llash	625





RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Zokirov Sardor To‘lqin o‘g‘li

*Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli platformalar orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Raqamli platformalarning investorlarga hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilmaviy imkoniyatlari, investitsiya loyihalari, moliyaviy rag‘batlar va mavjud resurslar to‘g‘risida tezkor hamda tizimlashtirilgan axborot taqdim etishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, elektron investitsion xaritalar, loyiha kataloglari, raqamli davlat xizmatlari va onlayn monitoring vositalarining investorlar bilan o‘zaro hamkorlikni soddalashtirishdagi ahamiyati asoslangan. Raqamli platformalarni davlat xizmatlari bilan integratsiyalash orqali ma‘muriy va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda investorlar ishonchini mustahkamlash yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli platforma, xorijiy investitsiyalar, hudud, investitsion jozibadorlik, raqamli iqtisodiyot, investitsion loyiha, investitsion xarita, elektron xizmatlar, investor, raqamli transformatsiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНЫ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

Зокиров Сардор Тулкин угли

*Независимый соискатель
Ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. В статье исследуются вопросы совершенствования механизмов привлечения иностранных инвестиций в регионы посредством цифровых платформ. Раскрыты возможности цифровых платформ по оперативному и систематизированному предоставлению инвесторам информации об экономическом потенциале регионов, инфраструктурных возможностях, инвестиционных проектах, финансовых стимулах и имеющихся ресурсах. Также обосновано значение электронных инвестиционных карт, каталогов проектов, цифровых государственных услуг и инструментов онлайн-мониторинга в упрощении взаимодействия с инвесторами. Предложены направления интеграции цифровых платформ с государственными услугами в целях снижения административных и транзакционных издержек, повышения прозрачности инвестиционных процессов и укрепления доверия инвесторов.

Ключевые слова: цифровая платформа, иностранные инвестиции, регион, инвестиционная привлекательность, цифровая экономика, инвестиционный проект, инвестиционная карта, электронные услуги, инвестор, цифровая трансформация.

IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO REGIONS THROUGH DIGITAL PLATFORMS

Zokirov Sardor Tulkin ugli

*Independent Researcher at
Tashkent State
University of Economics*

Abstract. This article examines ways to improve mechanisms for attracting foreign





investment to regions through digital platforms. It highlights the potential of digital platforms to provide investors with timely and systematized information on the economic potential of regions, infrastructure capabilities, investment projects, financial incentives, and available resources. The article also substantiates the importance of electronic investment maps, project catalogs, digital public services, and online monitoring tools in simplifying interaction with investors. Directions are proposed for integrating digital platforms with public services in order to reduce administrative and transaction costs, enhance the transparency of investment processes, and strengthen investor confidence.

Keywords: *digital platform, foreign investment, region, investment attractiveness, digital economy, investment project, investment map, electronic services, investor, digital transformation.*

Kirish.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi investitsiya jarayonlarini tashkil etish, investorlar bilan muloqot qilish va hududlarning investitsion salohiyatini namoyish etish usullariga sezilarli o'zgarishlar kiritmoqda. Ayniqsa, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli platformalardan foydalanish investorlar uchun zarur axborotni tezkor taqdim etish, investitsiya loyihalarini tanlash va davlat organlari bilan masofaviy hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu jihatdan raqamli platformalar xorijiy kapitalni hududlarga yo'naltirishning yangi tashkiliy-iqtisodiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy investorning hududni tanlash jarayonida iqtisodiy salohiyat, bozor sig'imi, infratuzilma, mehnat resurslari, tabiiy resurslar, mavjud investitsiya loyihalari va moliyaviy rag'batlar to'g'risidagi ishonchli axborot muhim o'rin tutadi. Ushbu ma'lumotlarni yagona raqamli platformada tizimlashtirish investorning hududlarni taqqoslash va investitsion qarorlarni tezroq qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, interaktiv investitsion xaritalar, elektron loyiha kataloglari, bo'sh yer maydonlari va ishlab chiqarish infratuzilmasi haqidagi ma'lumotlar investor uchun hududning real imkoniyatlarini baholashni yengillashtiradi.

Raqamli platformalarning afzalligi faqat axborot taqdim etish bilan cheklanmaydi. Ular investitsiya loyihasini ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat beruvchi hujjatlarni olish, davlat xizmatlaridan foydalanish, loyiha ijrosini monitoring qilish va investor murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonlarini ham raqamlashtirish imkonini beradi. Natijada ma'muriy va tranzaksiya xarajatlari qisqarib, investitsiya jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi oshadi.

Shu sababli hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalarni investitsion axborot, davlat xizmatlari, loyiha monitoringi va investorlar bilan kommunikatsiyani birlashtiruvchi yagona tizim sifatida shakllantirish muhimdir. Mazkur yondashuv hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy kapital oqimini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur jadval O'zbekistonda 2018–2025-yillarda raqamli platformalarni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari va ularning xorijiy investitsiyalar dinamikasi bilan bog'liqligini ifodalaydi. Jadvaldagi internet abonentlari soni, axborot va aloqa xizmatlari hajmi hamda sohaga yo'naltirilgan asosiy kapital investitsiyalari raqamli muhitning shakllanish darajasini tavsiflaydi. Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi esa ushbu jarayonning investitsion faollik bilan bog'liq natijaviy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

2018–2025-yillarda internetga ulangan abonentlar soni 13 321,7 mingtadan 36 195,1 mingtagacha oshgan. Bu davrda ko'rsatkich qariyb 2,7 baravar ko'paygan. Abonentlar sonining izchil o'sishi raqamli platformalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan foydalanuvchilar bazasi kengayganini anglatadi. Bu esa elektron savdo, onlayn bank xizmatlari, elektron davlat xizmatlari va raqamli investitsiya platformalarining rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Axborot va aloqa xizmatlari hajmida yanada yuqori o'sish kuzatilgan. 2018-yilda 11 874,7 mlrd so'mni tashkil etgan xizmatlar hajmi 2025-yilga kelib 79 485,5 mlrd so'mga yetgan. Natijada





mazkur ko‘rsatkich qariyb 6,7 baravar oshgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda xizmatlar hajmining tez sur‘atlarda kengayishi raqamli xizmatlarga talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu holat raqamli platformalarning iqtisodiy faoliyatdagi amaliy ahamiyati kuchayayotganidan dalolat beradi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli platformalarni rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2018–2025-yillar⁷²

Yil	Internetga ulangan abonentlar, mingta	Axborot va aloqa xizmatlari hajmi, mlrd so‘m	Axborot va aloqa sohasiga asosiy kapitalga investitsiyalar, mln so‘m	Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so‘m
2018	13 321,7	11 874,7	1 558,1	30 154,8
2019	16 386,2	12 507,4	2 485,9	85 437,2
2020	19 981,0	15 861,1	8 842,1	89 758,8
2021	22 987,2	20 353,8	8 697,7	101 371,2
2022	26 723,6	27 938,0	6 578,4	113 864,3
2023	30 061,0	39 734,2	8 351,9	201 692,1
2024	32 138,7	56 865,2	13 714,9	351 846,5
2025	36 195,1	79 485,5	9 064,5	422 100,0

Axborot va aloqa sohasiga asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar 2018-yildagi 1 558,1 mln so‘mdan 2025-yilda 9 064,5 mln so‘mgacha yetgan. Davr davomida ushbu ko‘rsatkich umumiy hisobda sezilarli o‘shishga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, yillar kesimida ayrim tebranishlar mavjud. Eng yuqori qiymat 2024-yilda 13 714,9 mln so‘mni tashkil qilgan. 2025-yilda investitsiyalar hajmining 9 064,5 mln so‘mgacha pasayishi raqamli infratuzilmaga kapital qo‘yilmalarining yillik hajmida muayyan o‘zgaruvchanlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi esa jadvaldagi eng katta o‘shish sur‘atiga ega ko‘rsatkichlardan biridir. 2018-yildagi 30 154,8 mlrd so‘mdan 2025-yilda 422 100,0 mlrd so‘mgacha oshgan. Bu qariyb 14 baravar o‘shishni anglatadi. Ayniqsa, 2023-yildan boshlab xorijiy investitsiyalar hajmining sezilarli ravishda oshgani kuzatiladi: 2023-yilda 201 692,1 mlrd so‘m, 2024-yilda 351 846,5 mlrd so‘m va 2025-yilda 422 100,0 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Ko‘rsatkichlarning birgalikdagi dinamikasi raqamli infratuzilma va xizmatlar rivojlanishi bilan mamlakatning investitsion faolligi bir vaqtning o‘zida kuchayganini ko‘rsatadi. Internet qamrovining kengayishi va axborot-kommunikatsiya xizmatlari bozorining o‘shishi investorlar uchun biznes yuritish jarayonlarini soddalashtiradi, axborot olish va uzatish xarajatlarini kamaytiradi hamda yangi biznes modellarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, jadval ma’lumotlaridan kelib chiqib, raqamli platformalarning rivojlanishi xorijiy investitsiyalar o‘shishining yagona sababi degan xulosaga kelish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Xorijiy kapital oqimiga makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya qonunchiligi, soliq va bojxona siyosati, transport infratuzilmasi, mehnat resurslari hamda bozor salohiyati kabi boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Biroq raqamli platformalar ushbu omillarning investor uchun qulay va tezkor shaklda taqdim etilishiga xizmat qiluvchi muhim infratuzilmaviy vosita hisoblanadi.

Umuman, 2018–2025-yillardagi tendensiyalar O‘zbekistonda raqamli platformalarni rivojlantirish uchun zarur foydalanuvchi bazasi va xizmatlar bozori sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Kelgusida raqamli investitsiya platformalarini yagona tizimga integratsiya qilish, hududlarning investitsion loyihalarini elektron shaklda taqdim etish, investorlar uchun ma’lumotlarning ochiqligi va dolzarbligini ta’minlash hamda barcha ma’muriy jarayonlarni raqamlashtirish hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

Mazkur jadval raqamli platformalar orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining samaradorligini baholash uchun ishlab chiqilgan indikatorlar tizimini ifodalaydi. Raqamli texnologiyalarning investitsiya jarayonlariga joriy etilishi investorlar uchun zarur axborotni tezkor olish, loyihalarni masofadan tahlil qilish, davlat xizmatlaridan elektron

⁷² <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





foydalanish va mahalliy hamkorlar bilan bevosita aloqa o‘rnatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli raqamli platformalar zamonaviy investitsiya siyosatining muhim vositasiga aylanmoqda.

Jadvalda eng yuqori 20 foizlik vazn elektron investitsiya platformasida joylashtirilgan investitsiya loyihalari soniga berilgan. Mazkur ko‘rsatkichning yuqori bo‘lishi hududning investorlarga taklif qilinayotgan loyihalar bazasi kengligini anglatadi. Investitsiya loyihalarining yagona elektron platformada jamlanishi investor uchun hududlar, tarmoqlar va loyihalarni o‘zaro taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli loyihalar soni investitsion jozibadorlikni baholashda asosiy indikatorlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Onlayn investitsiya loyihalarining umumiy qiymatiga 15 foiz vazn ajratilgan. Bu ko‘rsatkich faqat loyihalar sonini emas, balki ularning iqtisodiy ko‘lamini ham hisobga olish imkonini beradi. Masalan, loyihalar soni ko‘p bo‘lishi mumkin, biroq ularning qiymati nisbatan kichik bo‘lsa, hududning yirik xorijiy kapitalni jalb qilish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan loyihalar soni va umumiy qiymatini birgalikda baholash yanada obyektiv natija beradi.

2-jadval

Raqamli platformalar orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini baholash indikatorlari⁷³

№	Raqamli mexanizm	Asosiy ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Investitsiyaga ta’siri	Tavsiya etiladigan vazn, %
1	Elektron investitsiya platformasi	Platformada joylashtirilgan investitsiya loyihalari soni	dona	Ijobiy ↑	20
2	Raqamli loyiha portfeli	Onlayn investitsiya loyihalarining umumiy qiymati	mlrd so‘m	Ijobiy ↑	15
3	Investorlar uchun axborot tizimi	Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy investorlar soni	dona	Ijobiy ↑	10
4	Elektron xizmatlar	Investitsiya xizmatlarining onlayn ko‘rsatish darajasi	%	Ijobiy ↑	10
5	Raqamli infratuzilma	Internetga ulangan abonentlar soni	mingta	Ijobiy ↑	10
6	AKT rivojlanishi	Axborot va aloqa xizmatlari hajmi	mlrd so‘m	Ijobiy ↑	10
7	Raqamli investitsiyalar	Axborot va aloqa sohasiga investitsiyalar	mln so‘m	Ijobiy ↑	10
8	Investitsion natija	Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni	dona	Ijobiy ↑	10
9	Elektron aloqa	Investorlar bilan onlayn murojaat va maslahat xizmatlari	dona	Ijobiy ↑	5
	Jami				100

Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy investorlar soni hamda investitsiya xizmatlarining onlayn ko‘rsatish darajasining har biriga 10 foizdan vazn berilgan. Investorlar sonining ortishi platformaning amaliy talabga ega ekanligini ko‘rsatadi. Elektron xizmatlarning kengayishi esa investitsiya loyihalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, hujjatlarni topshirish, ruxsat olish va boshqa ma‘muriy jarayonlarni soddalashtiradi. Natijada investorning vaqt va tranzaksiya xarajatlari kamayadi.

Internetga ulangan abonentlar soni va axborot va aloqa xizmatlari hajmi ham 10 foizlik vazn bilan baholanmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar hududdagi raqamli infratuzilmaning umumiy rivojlanish darajasini ifodalaydi. Raqamli platformalarning samarali ishlashi uchun internet tarmog‘ining keng qamrovi va sifatli telekommunikatsiya xizmatlari zarur. Shuning uchun elektron investitsiya mexanizmlarining samaradorligini hududning umumiy raqamli infratuzilmasidan ajratib baholash maqsadga muvofiq emas.

Axborot va aloqa sohasiga investitsiyalarga 10 foiz vazn berilishi raqamli platformalarning texnik va institutsional bazasini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan kapitalni hisobga olish imkonini beradi. Bunday investitsiyalar telekommunikatsiya tarmoqlari, ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimlari va raqamli xizmatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Natijada hududlarning xorijiy investorlar uchun raqamli jihatdan qulay muhit yaratish imkoniyati ortadi.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 10 foizlik vazn bilan natijaviy indikator

⁷³ <https://stat.uz/uz/> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





sifatida belgilangan. Ushbu ko‘rsatkich raqamli platformalar orqali yaratilgan qulay investitsiya muhitining amaliy natijasini baholashga yordam beradi. Korxonalar sonining ko‘payishi hududga xorijiy kapital kirib kelishi va investitsiya loyihalarining real iqtisodiy faoliyatga aylanishini ko‘rsatadi.

Investorlar bilan onlayn murojaat va maslahat xizmatlariga 5 foizlik vazn berilgan. Vaznning nisbatan past bo‘lishiga qaramay, mazkur mexanizm investor bilan davlat va hududiy boshqaruv organlari o‘rtasidagi aloqani tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tezkor maslahat, elektron murojaat va loyiha bo‘yicha masofaviy muloqot investitsiya jarayonidagi ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirishi mumkin.

Jadvaldagi barcha indikatorlarning vaznlari yig‘indisi 100 foizni tashkil etadi. Bu esa ularni yagona integral baholash tizimiga birlashtirish imkonini beradi. Amaliy jihatdan har bir indikatorni standartlashtirib, belgilangan vaznga ko‘paytirish va natijalarni jamlash orqali hududning raqamli investitsion jozibadorlik integral indeksini hisoblash mumkin.

Umuman, mazkur indikatorlar tizimi raqamli platformalarni faqat texnologik vosita sifatida emas, balki xorijiy investorni izlashdan tortib, loyihani amalga oshirishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oluvchi investitsion mexanizm sifatida baholash imkonini beradi. Kelgusida platformalarda loyihalarining joylashuvi, infratuzilma imkoniyatlari, soliq imtiyozlari, investitsiya hajmi, kutilayotgan rentabellik va amalga oshirish muddati haqidagi ma‘lumotlarni standart shaklda joylashtirish investorlar uchun qaror qabul qilish jarayonini yanada soddalashtiradi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy afzalligi investor uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, infratuzilmaviy, moliyaviy va institutsional axborotni yagona tizimda shakllantirish va tezkor taqdim etish imkoniyatidan iborat. Bunday yondashuv hududlarning investitsion salohiyatini taqqoslash, investitsiya loyihalarini tanlash va kapital kiritish bo‘yicha qarorlarni qabul qilish jarayonlarini soddalashtiradi.

Fikrimizcha, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli platformalarni oddiy axborot resursidan kompleks investitsion boshqaruv vositasiga aylantirish lozim. Bunda platformada hududlarning investitsion reytingi, bo‘sh yer maydonlari, tayyor infratuzilma, investitsiya loyihalari, mehnat resurslari, soliq va bojxona imtiyozlari, eksport imkoniyatlari hamda mavjud moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar muntazam yangilanib borishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, platformani davlat xizmatlari bilan integratsiyalash orqali investorning loyiha tashabbusidan boshlab uni amalga oshirish va monitoring qilishgacha bo‘lgan jarayonini yagona raqamli muhitda tashkil etish mumkin. Bu ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish, inson omili bilan bog‘liq kechikishlarni qisqartirish va investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Hududlar o‘rtasidagi raqamli imkoniyatlar tafovutini hisobga olgan holda, investitsion platformalarning texnik va institutsional imkoniyatlarini hududlar kesimida kengaytirish zarur. Ayniqsa, investitsion salohiyati yuqori, biroq axborot va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi nisbatan past hududlarda raqamli investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

Umuman, “raqamli platforma – investitsion axborot – elektron xizmat – investor bilan muloqot – loyiha monitoringi” uzviy tizimini shakllantirish hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. — Toshkent:





Moliya, 2010.

2. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. — Toshkent: Moliya, 2003.

3. Qosimova M.S., Ergashxo‘jayeva Sh.J. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2011.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. — Toshkent, 2018–2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsiya faoliyati bo‘yicha statistik va tahliliy ma’lumotlar. — Toshkent.

6. World Bank. World Development Report 2016: Digital Dividends. — Washington, DC, 2016.

7. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. — Geneva, 2024.

